



O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING BARQARORLIK REYTINGINI JORIY ETISH ASOSLARI, METODOLOGIYA VA NATIJALAR TAHLILI

DSc Abdullayev Zafarbek

Namangan davlat universiteti

ORCID: 0009-0000-2685-5398

zafarbek.abdullayev555@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi tizimini joriy etishning huquqiy asoslari, metodologiyasi va dastlabki natijalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi reyting tizimining mazmun-mohiyatini, baholash mezonlaridagi o'zgarishlarni va ularning soliq intizomi hamda biznes muhiti barqarorligiga ta'sirini aniqlashdan iborat. Metodologik jihatdan deskriptiv va analitik tahlil, xalqaro tajriba bilan qiyosiy yondashuv, diagnostik baholash hamda raqamli monitoring usullari qo'llanilgan. Davlat soliq qo'mitasi axborot tizimlari, rasmiy statistik ma'lumotlar va normativ-huquqiy hujjatlar empirik baza sifatida foydalanilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, barqarorlik reytingi joriy etilgach, soliqlarni o'z vaqtida to'lash, hisobotlarni kechiktirmasdan topshirish, elektron hisobvara-fakturalardan foydalanish, ish bilan bandlik va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar bandligi sezilarli darajada oshgani aniqlangan. Shuningdek, reyting mezonlarini 30 kunlik o'rtacha ball asosida hisoblash, yangi rag'batlantiruvchi va kamaytiruvchi indikatorlarni joriy etish tizimning shaffofligi va selektiv fiskal boshqaruv imkoniyatlarini kengaytirgani asoslab beriladi. Muallif reyting tizimini sohaviy va hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda yanada takomillashtirish, shuningdek banklar, investorlar va davlat xaridlari amaliyotida faol qo'llash bo'yicha takliflar ilgari suradi.

Kalit so'zlar: barqarorlik reytingi, tadbirkorlik subyektlari, soliq intizomi, raqamli fiskal boshqaruv, baholash mezonlari.

ВНЕДРЕНИЕ РЕЙТИНГА УСТОЙЧИВОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ: ОСНОВЫ, МЕТОДОЛОГИЯ И АНАЛИЗ РЕЗУЛЬТАТОВ

DSc Абдуллаев Зафарбек

Наманганский государственный университет

Аннотация. В данной статье анализируются правовые основы, методология и первоначальные результаты внедрения системы рейтинга устойчивости субъектов предпринимательства в Узбекистане. Цель исследования заключается в раскрытии сущности рейтинговой системы, выявлении изменений в критериях оценки и определении их влияния на налоговую дисциплину и стабильность бизнес-среды. В методологическом плане применены описательный и аналитический анализ, сравнительный подход с учётом международного опыта, диагностическая оценка, а также методы цифрового мониторинга. В качестве эмпирической базы использованы информационные системы Государственного налогового комитета, официальная статистика и нормативно-правовые акты. Согласно результатам исследования, после внедрения рейтинга устойчивости значительно возросли показатели своевременной

уплаты налогов, представления отчётности без просрочек, использования электронных счетов-фактур, занятости и трудоустройства социально уязвимых категорий граждан. Кроме того, обосновано, что расчёт рейтинговых показателей на основе средних баллов за 30 дней, а также введение новых стимулирующих и понижающих индикаторов расширили прозрачность системы и возможности селективного фискального управления. Автор выдвигает предложения по дальнейшему совершенствованию рейтинговой системы с учётом отраслевых и региональных особенностей, а также по её активному применению в практике банков, инвесторов и государственных закупок.

Ключевые слова: рейтинг устойчивости, субъекты предпринимательства, налоговая дисциплина, цифровое фискальное управление, критерии оценки.

IMPLEMENTATION OF THE STABILITY RATING FOR BUSINESS ENTITIES IN UZBEKISTAN: FOUNDATIONS, METHODOLOGY AND ANALYSIS OF RESULTS

DSc **Abdullayev Zafarbek**
Namangan State University

Abstract. This article analyzes the legal foundations, methodology and initial results of implementing the stability rating system for business entities in Uzbekistan. The aim of the study is to explain the essence of the rating system, to identify changes in the assessment criteria and to determine their impact on tax compliance and the stability of the business environment. Methodologically, the research employs descriptive and analytical analysis, a comparative approach based on international experience, diagnostic assessment and digital monitoring techniques. The empirical base relies on the information systems of the State Tax Committee, official statistical data and national regulatory acts. The findings show that, after the introduction of the stability rating, there has been a significant increase in timely tax payments, on-time submission of tax reports, the use of electronic invoices, overall employment and the employment of socially vulnerable groups. Furthermore, the paper substantiates that calculating the rating on the basis of 30-day average scores and introducing new incentive and penalty indicators have enhanced the transparency of the system and expanded the possibilities for selective fiscal management. The author proposes further improvement of the rating system, taking into account sectoral and regional specificities, as well as its more active use in the practices of banks, investors and public procurement.

Keywords: stability rating, business entities, tax compliance, fiscal discipline, digital fiscal management, rating indicators.

Kirish.

O'zbekiston iqtisodiyotida tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligi va soliq intizomini baholash uchun reyting yondashuvi joriy etilgan. Bu tashabbus dastlab 2023-yil 18-avgustda Prezidentning tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida ko'tarilgan va tegishli topshiriqlar berilgan edi. Shunga muvofiq, 2024-yil 23-yanvarda PQ-39-son "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori qabul qilinib, tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish choralari belgilandi. Mazkur qarorning maqsadi etib soliqlarni o'z vaqtida to'lab, qonun talablariga to'liq rioya qilgan holda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarni aniqlash va ularni rag'batlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdan iborat bo'ldi.

Prezident qaroriga ko'ra, 2024-yil 1-fevraldan boshlab tadbirkorlarning barqarorlik reytingini baholash tizimi ishga tushirilgan bo'lsa, 2024-yil 1-apreldan boshlab tadbirkorlarga beriladigan subsidiya, imtiyoz va preferensiyalar ularning reyting darajasiga bog'liq ravishda joriy etilishi belgilandi. Bu yangilik tadbirkorlik subyektlarini yanada ochiq va halol ishlashga

undashga qaratilgan bo'lib, reyting darajasi yuqori bo'lganlarga davlat tomonidan bir qator afzalliklar berilishi rejalashtirildi. Jumladan, eng yuqori reytingga ega korxonalar soliq organlari tekshiruvlaridan ozod qilinishi, ortiqcha to'langan soliqlari tez fursatda qaytarilishi kabi imtiyozlarga ega bo'lishi belgilandi.

Xalqaro amaliyotga nazar solinsa, barqarorlik reytinglari tizimi jahon moliya bozorlarida kompaniyalarning ishonchligini baholashda keng qo'llaniladi. Davlatlar bu kabi reytinglardan fiskal xavflarni oldindan aniqlash va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda foydalanib keladi. O'zbekistonda joriy etilgan tadbirkorlarning barqarorlik reytingi tizimi aynan xalqaro tajribaning ushbu yondashuvlaridan ishlab chiqilib, soliq intizomi, elektron hisobot, moliyaviy barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyat kabi omillar kompleks tarzda inobatga olinadi. Ushbu tizim orqali yuridik shaxslar maxsus ball tizimi asosida baholanib, ularning ishonchlilik darajasi aniqlanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi tizimi bo'yicha adabiyotlar sharhi ushbu sohadagi ilmiy va amaliy yondashuvlarni tizimli tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, reyting tizimining shakllanishi, baholash mezonlari, xalqaro tajribalar bilan qiyoslanishi hamda mavjud ilmiy qarashlar asosida takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi tizimi O'zbekiston Respublikasida 2024-yil 23-yanvardagi PQ-39-son Prezident qarori va 2024-yil 30-yanvardagi 55-sonli "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Vazirlar Mahkamasi qarori asosida joriy etildi. Mazkur huquqiy hujjatlar ushbu tizimning institutsional shakllanishini belgilab berib, reyting mezonlari, baholash indikatorlari, ularning tartibli e'lon qilinishi, reyting natijalarining ochiqligi va davlat soliq siyosatiga integratsiyalashuvini huquqiy jihatdan mustahkamlab berdi. Tizimning huquqiy bazasi raqamli fiskal boshqaruvga asoslangan yondashuvlar, real vaqtli monitoring, avtomatlashtirilgan tahlil, soliq xavflarini baholash va selektiv rag'batlantirish tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi. Shu orqali reyting tizimi nafaqat tartibga soluvchi vosita, balki fiskal intizomni kuchaytiruvchi strategik mexanizm sifatida qaralmoqda.

Nurmatov (2024) tomonidan olib borilgan tadqiqotda reyting tizimining xorijiy davlatlar amaliyoti bilan qiyosiy tahlillar yoritilgan bo'lib, unda mazkur tizimni baholashda qo'llaniladigan indikatorlar, ularga biriktirilgan vazn koeffitsientlari hamda avtomatlashtirilgan algoritmlar asosida ishlash mexanizmlari atroflicha ochib berilgan. Muallif soliq va moliyaviy ko'rsatkichlarni yagona tizimda integratsiyalash, ularni baholash mexanizmlarini nazariy jihatdan asoslab, reyting tizimining metodologik yondashuvlarini tahlil qilgan.

Yakshiboyeva (2024) tomonidan olib borilgan tadqiqotda reyting tizimini shakllantirishda foydalaniladigan zamonaviy yondashuvlar atroflicha tahlil qilingan bo'lib, xususan moliyaviy turg'unlik, iqtisodiy samaradorlik, raqamlashtirish darajasi va ijtimoiy mas'uliyat kabi ko'rsatkichlarga alohida e'tibor qaratilgan. Muallif ushbu ko'rsatkichlarning har biri bo'yicha qo'llaniladigan metodik yondashuvlarni tizimli ravishda ko'rib chiqqan. Keltirilgan yondashuvlar reyting tizimining ilmiy-nazariy asoslarini mustahkamlash bilan birga, uning amaliy qo'llanilishini yanada aniq, shaffof va samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Reyting tizimi tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy va fiskal intizomini kompleks baholash orqali ularning moliyaviy shaffofligini oshirish, soliqqa oid xatarlarni erta aniqlash hamda yashirin iqtisodiy faoliyat hajmini qisqartirishga xizmat qiluvchi muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur tizim xavfga yo'naltirilgan soliq nazorati choralari belgilash, soliq yukini nisbatan adolatli taqsimlash va raqamli iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan fiskal boshqaruvni shakllantirishda metodologik ahamiyatga ega vosita sifatida qaraladi. Reyting baholari asosida tadbirkorlik subyektlariga differensial soliqqa tortish rejimlari, kredit resurslaridan foydalanishda yengilliklar, grantlar hamda boshqa fiskal

rag'batlantirish instrumentlarini qo'llash nazarda tutiladi. Bu esa, o'z navbatida, milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, soliq ma'murchiligini optimallashtirish va tadbirkorlik muhitini institutsional jihatdan sog'lomlashtirishga bevosita amaliy hissa qo'shadi.

Zamonaviy global iqtisodiyotda moliyaviy barqarorlik, kreditga layoqatlilik va institutsional ishonchlilik darajalarini baholashda xalqaro reyting tizimlari muhim vosita sifatida e'tirof etiladi. Turli mamlakatlar va kompaniyalar reyting baholari orqali investorlar, moliyaviy tashkilotlar va xalqaro institutlar e'tiborini jalb qilish, kredit resurslariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda iqtisodiy islohotlar samaradorligini namoyon etishga intiladilar.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, mazkur adabiyotlar sharhi O'zbekiston sharoitida joriy etilgan reyting tizimining xalqaro standartlar bilan metodologik uyg'unligi, ularning kontseptual asoslari bilan mosligi hamda milliy iqtisodiy, huquqiy va institutsional muhitga qanchalik darajada adaptatsiya qilinganini har tomonlama yoritib beradi. Olib borilgan tahlillar reyting indikatorlari, baholash algoritmlari va raqamli platformalardan foydalanish darajasini ochib berish orqali nafaqat nazariy yondashuvlar va konsepsiyalarni, balki ularning amaliy natijalarda ifodalanishini ham ko'rsatib beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi tizimini tahlil qilish va baholashda kompleks yondashuv asosida ilmiy-uslubiy asoslar ishlab chiqildi. Tadqiqot metodologiyasi reyting tizimining shakllanishi, baholash mezonlari va ularning amaliy qo'llanilishiga daxldor nazariy, huquqiy hamda statistik jihatlarni qamrab oladi. Tadqiqot yondashuvi sifatida deskriptiv va analitik usullar, shuningdek xalqaro tajriba materiallari asosida qiyosiy tahlil qo'llanildi. Reyting indikatorlarini tahlil qilishda diagnostik baholash yondashuvi, ularning algoritmik asosda ishlash mexanizmlari hamda avtomatlashtirilgan platforma orqali shakllanadigan ma'lumotlar negizida raqamli monitoring usuli tatbiq etildi. Empirik baza sifatida milliy normativ-huquqiy hujjatlar, Davlat soliq qo'mitasining axborot platformasi, reyting mezonlari bo'yicha rasmiy statistik ko'rsatkichlardan foydalanildi. Metodologik yondashuvning ishonchliligi va aniqligi reyting tizimidagi indikatorlar o'rtasidagi uzviy bog'liqligi bilan asoslanadi. Natijada shakllanadigan reyting ko'rsatkichlari faqat fiskal boshqaruv uchun emas, balki selektiv soliq siyosatini amalga oshirish, soliq siyosatini diferensiallashtirish va moliyaviy monitoringni takomillashtirishda ham ishonchli axborot manbasi sifatida qo'llanilmoqda.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Barqarorlik reytingini aniqlash reyting ko'rsatkichlari asosida ball berish tizimi orqali hisoblab chiqiladi. Bu ko'rsatkichlar uch guruhga bo'lingan bo'lib umumiy (bazaviy) mezonlar, ballarni kamaytiruvchi (salbiy) mezonlar, va qo'shimcha ball beruvchi (rag'batlantiruvchi) mezonlarga ajratiladi. Umumiy ko'rsatkichlar tadbirkorning odatiy faoliyat va soliq intizomiga doir jihatlarni qamrab olib, maksimal 100 ballgacha baholanadi. Salbiy mezonlar belgilangan noxush holatlar yuzaga kelganda umumiy ballardan tegishli miqdorni chegirib tashlaydi. Rag'batlantiruvchi mezonlar esa ijobiy xulq-atvor va qo'shimcha yutuqlar uchun qo'shimcha ball qo'shadi. Yakuniy ball shunday tartibda shakllanib, tadbirkorning reyting toifasi aniqlanadi.

Umuman olganda reyting baholash metodikasi aynan shu mezonlar bo'yicha ballar tizimini o'z ichiga oladi. Har bir mezon bo'yicha maksimal ball yoki chegiriladigan ball miqdori belgilangan. Reytingning umumiy hisob-kitob formulasi quyidagicha tushuniladi (1):

$$\text{Umumiy ball} = \sum_{i=1}^n \text{Ball}_i^{(+)} - \sum_{j=1}^m \text{Ball}_j^{(-)} + \sum_{k=1}^p \text{Ball}_k^{(\text{extra})} \quad (1)$$

bu yerda:

$\text{Ball}_i^{(+)}$ — umumiy mezon bo'yicha ball;

$Ball_j^{(-)}$ — pasaytiruvchi salbiy mezon bo'yicha chegirilgan ball;

$Ball_k^{(extra)}$ — qo'shimcha rag'batlantiruvchi mezon bo'yicha ball.

n, m, p - mos ravishda mezonlar soni.

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini baholashda turli davlat organlarining elektron bazalaridan avtomatik ma'lumotlar yig'iladi va har bir mezon bo'yicha doimiy monitoring qilib boriladi. Soliq organlari tomonidan soliq to'lovchini tekshirishgacha aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish holati esa kunlik monitoring qilinadi. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining yuridik manzili yoki rahbari tez-tez o'zgarganligi kabi noxush holatlar Adliya vazirligi ma'lumotlari asosida yillik baholanib, bunday holatlar aniqlansa ballar kamaytiriladi. Tadbirkorning soliqqa oid ma'muriy yoki jinoiy huquqbuzarliklar uchun javobgarlikka tortilgani to'g'risidagi ma'lumotlar ham Oliy sud va Soliq qo'mitasi bazalaridan olinib, oxirgi 12 oyda bunday holat kuzatilsa tegishli ball jarimalari qo'llanadi. Ko'rinib turibdiki, reyting mezonlari tadbirkorning soliqqa doir tartib-intizomi, moliyaviy holati, huquqiy barqarorligi va ijtimoiy mas'uliyatini qamrab oluvchi integratsiyalashgan yondashuvdir.

Reyting ko'rsatkichlarining shakllanish tartibi quyidagicha ishlaydi. Dastlab har bir umumiy mezon bo'yicha ballar yig'iladi, zarur hollarda salbiy mezonlar bo'yicha jarima ballari ayiriladi va so'ngra rag'batlantiruvchi mezonlar bo'yicha qo'shimcha ballar qo'shiladi. Natijada har bir subyekt uchun umumiy ball shakllanadi. Tadbirkorning reyting balli har kuni o'zgarishi mumkin, biroq tasodifiy o'zgarishlar ta'sirini kamaytirish maqsadida so'nggi 30 kunning o'rtacha qiymati asosida barqarorroq baho chiqariladi. Reyting ma'lumotlari real vaqt rejimida Soliq qo'mitasining my.soliq.uz shaxsiy kabineti va "Soliq" mobil ilovasi orqali ko'rish uchun taqdim etilgan, shuningdek Savdo-sanoat palatasining rasmiy veb-saytida tadbirkorlarning reyting toifalari e'lon qilib boriladi. Shu tariqa, tadbirkor o'z reytingini doimo kuzatishi va zarur choralar ko'rishini mumkin, ayni paytda boshqa subyektlar ham sheriklarining ishonchliligini ushbu reyting orqali tekshirish imkoniga ega bo'ldi.

Reyting natijasida tadbirkorlik subyektlari quyidagi toifalarga ya'ni eng yuqori "AAA" dan boshlab AA, A, keyin "BBB", "BB", "B", so'ngra "CCC", "CC", "C" va eng past "D" gacha bo'lgan 4 darajadagi guruhlariga ajratiladi. Ya'ni, 96 balldan 100 ballgacha to'plagan korxonalar "AAA" reyting oladi, 91-95 ball – "AA", 86-90 ball – "A" toifa kiritilib bularga yuqori barqarorlik reytingi deb qaraladi. Xuddi shunga o'xshash, o'rta, qoniqarli va quyi reyting hisoblanadi (1-rasm).

	REYTING TOIFASI	BALLAR DIAPAZONI (100 ballik tizim)	
IMTIYOZLI DIAPAZON	AAA	96 balldan – 100 ballgacha	YUQORI $86 \geq Y \leq 100$
	AA	91 balldan – 95 ballgacha	
	A	86 balldan – 90 ballgacha	
IMTIYOZSIZ DIAPAZON	BBB	76 balldan – 85 ballgacha	O'RTA $56 \geq O \leq 85$
	BB	66 balldan – 75 ballgacha	
	B	56 balldan – 65 ballgacha	
	CCC	51 balldan – 55 ballgacha	QONIQARLI $26 \geq Q \leq 55$
	CC	36 balldan – 50 ballgacha	
	C	26 balldan – 35 ballgacha	
	D	0 ballgacha – 25 ballgacha	QUYI

1-rasm. O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi bo'yicha taklif etilgan toifalar tizimi

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi.

Ushbu tizimga 2024-yil fevralidan 2025-yil oktabriga qadar bir necha marotaba takomillashtiruvchi o'zgartirishlar kiritildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 21-oktabrdagi 662-sonli "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida"gi qarori bilan **11 ta mezon takomillashtirilib hamda 5 ta yangi mezon kiritildi (1-jadval).**

1-jadval

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar

T/r	55-Qaror bo'yicha (30.01.2024)	662-Qaror bo'yicha (21.10.2025)
a) Umumiy ko'rsatkichlar		
1.	Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish davomiyligi	Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish davomiyligi
2.	EBITDA bo'yicha rentabellik darajasi	Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoridan ortiq ish haqi to'lanayotgan xodimlar sonining ko'payishi
3.	Yer uchastkalari va (yoki) ko'chmas mulk obyektlari mavjudligi	Yer uchastkalari va (yoki) ko'chmas mulk obyektlari mavjudligi
5.	Soliq hisobotlarining belgilangan muddatlarda taqdim etilishi	Soliq hisobotlarining belgilangan muddatlarda taqdim etilishi
6.	Hisoblangan soliqlarning belgilangan muddatlarda to'lanishi	Hisoblangan soliqlarning belgilangan muddatlarda to'lanishi
7.	Hisoblangan soliqlarning to'lov topshiriqnomasi orqali to'langanligi	Qo'shilgan qiymat solig'i (keyingi o'rinlarda — QQS) (aylanmadan olinadigan soliq (keyingi o'rinlarda — AOS) bo'yicha hisoblangan soliq summasining tegishli sohaga oid o'rtacha ko'rsatkichga nisbati
9.	Elektron hisobvara-fakturalar orqali xarid qilingan tovarlar realizatsiyasi	Elektron hisobvara-fakturalar orqali xarid qilingan tovarlar va xizmatlar realizatsiyasi
10.	Soliq organlari tekshiruvidan oldingi tahlil natijasida aniqlagan kamchiliklarning bartaraf etilish holati	Soliq organlari tekshiruvidan oldingi tahlil natijasida aniqlagan kamchiliklarning bartaraf etilish holati
b) Ballarni kamaytiruvchi ko'rsatkichlar		
14.	Taqdim etilgan soliq hisobotlariga tuzatishlar soliq to'lovchining o'zi tomonidan mustaqil kiritilishi	Taqdim etilgan soliq hisobotlariga tuzatishlar soliq to'lovchining o'zi tomonidan mustaqil kiritilishi
v) Qo'shimcha ball beruvchi ko'rsatkichlar		
20.	ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar bandligini ta'minlash	Ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar bandligini ta'minlash
21.	mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoridan ortiq ish haqi to'lanayotgan xodimlar sonining ko'payishi	EBITDA bo'yicha rentabellik darajasi
22.	qo'shilgan qiymat solig'i (keyingi o'rinlarda — QQS) bo'yicha hisoblangan soliq summasining tegishli soha bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichga nisbati	Foyda solig'i bo'yicha hisoblangan soliq summasining tegishli sohaga oid o'rtacha ko'rsatkichga nisbati
23.	aylanmadan olinadigan soliq (keyingi o'rinlarda-AOS) bo'yicha hisoblangan soliq summasining tegishli soha bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichga nisbati	Raqamli markirovkalash qoidalariga rioya etilishi
24.	-	Tadbirkorlik subyektlari tomonidan dala chetlariga har yili 1-aprelga qadar ekin ekilgani va mavsum davomida mahsulot yetishtirilgani
25.	-	Ekologik markirovkalash sertifikatini mavjudligi
26.	-	"Yashil" energiyadan foydalanish samaradorligi

Bu o'zgarishlardan eng muhimlari ya'n reytingni aniqlash endilikda oxirgi 30 kunlik o'rtacha ballar asosida amalga oshirilishibeligilandi.

1-mezon (faoliyat davri) bo'yicha endi kalendar yilda kamida 3 oy real aylanmasi bo'lgan korxonalargina to'liq faol deb baholanib, umuman harakatsiz bo'lgan davrlar uchun ball berilmasligi belgilandi.

2-mezon tubdan o'zgartirilib, avval umumiy ko'rsatkichlar qatorida bo'lgan **EBITDA rentabellik** mezoni o'rniga xodimlar sonining oshishi mezoni joriy etildi. Endi xodimlar sonining oshishi foizda ham, absolyut sonda ham e'tiborga olinib, doimiy band xodimlar soni har 100 nafarga ko'paygan sari 1 balldan, jami 10 ballgacha beriladi.

3-mezon bo'yicha yangilik – ijaraga olingan ishlab chiqarish maydonlariga ball berish joriy qilindi:

- QQS to'lovchisi bo'lgan korxona 18 kv.m dan kam bo'lmagan noturar joyni ijaraga olgan bo'lsa, unga ball qo'shiladi (oilaviy korxonalar, advokatlik tuzilmalari va IT-park rezidentlari bundan mustasno). Ayniqsa qishloq xo'jaligi yerlarini ijaraga olgan holda samarali foydalanganda (1000 kv.m dan ortiq yerda ekin ekib, mahsulot olinsa) maksimal 10 ball berilishi nazarda tutildi.

5-mezon ya'ni soliq hisobotini taqdim etish bo'yicha endi agar hisobot umuman taqdim etilmasa **5 ball chegiriladi**. Ilgari har bir kechiktirilgan yoki topshirilmagan hisobot uchun alohida tartib bo'lgan.

6 va 7-mezonlar bo'yicha yangilik – soliq qarzi bo'yicha inkasso qo'llanilgan vaqtda: agar bazaviy hisoblash miqdorining 0,1 baravaridan ortiq soliq qarzi bank tomonidan majburiy undirilgan yoki muddati o'tgan bo'lsa, 5 ball chegiriladi. Avval 6- va 7-mezonlar alohida ko'rsatkich edi, endi birlashtirilib, jarima sharti aniqlashtirildi. **7-mezon** tarkibiga qo'shimcha ravishda valyuta tushumlarini o'z vaqtida ta'minlash va eksport shartnomalarida muddati o'tgan debitor qarzdorlikka yo'l qo'ymaslik kabi talablar qo'shildi; shuningdek qishloq xo'jaligi korxonalarga mahsulot realizatsiyasi yer qiymatidan oshganda 10 ball berilishi kabi qulaylik qo'shildi.

9-mezon (elektron hisob-faktura orqali xarid qilingan tovarlar realizatsiyasi) endi nafaqat tovarlarni, balki xizmatlarni ham qamrab olishi belgilandi.

10-mezon ya'ni tekshiruv gacha aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish) bo'yicha endi agar aniqlangan kamchilik 10 kun ichida tuzatilmasa va uning summasi bazaviy hisoblashning 0,5 baravaridan oshsa, 5 ball chegiriladi, ya'ni jarima sharti qat'iylashtirildi.

14-mezon (hisobotlarga tuzatish kiritish) bo'yicha sezilarli o'zgarish kiritildi. Endilikda agar soliq hisobotiga yil davomida bir marta tuzatish kiritilgan bo'lsa, ball kamaytirilmaydi, lekin ikki va undan ortiq har bir tuzatish uchun 1 balldan chegiriladi, va agar 10 yoki undan ortiq tuzatish kiritilgan bo'lsa jami 10 ball chegirilishi belgilandi. Bu o'zgarish oldingi tartibdagi nomutanosiblikni bartaraf etdi. Avval hatto bitta tuzatish uchun ham ball kamayishi mumkin edi.

20-mezon ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni ishga olish uchun yangi shart qo'yildi – ketma-ket 3 oy davomida bunday xodimlarga kamida eng kam ish haqiga teng ish haqi to'langan bo'lsa va ular Yagona mehnat tizimiga kiritilgan bo'lsa, ball beriladi.

21-mezon EBITDA bo'yicha rentabellik qo'shimcha ball beruvchi mezonlar qatoriga o'tkazilib, 5 ball etib belgilandi.

Yangi mezon qo'shildi. Agar tadbirkorlik subyektning foyda solig'i bo'yicha hisoblangan soliq summasi o'z sohasidagi o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori bo'lsa yoki umumiy daromadining kamida 50% eksportdan shakllansa – unga 10 ball beriladi. Samarali foydalanish (ya'ni yer uchastkalarining chekka qismlariga ekin ekish), yashil energiyadan foydalanish samaradorligi, tadbirkorlik subyektlari tomonidan dala chetlariga har yili 1-aprelga qadar ekin ekilgani va mavsum davomida mahsulot yetishtirilgani hamda ekologik markirovka sertifikatiga ega bo'lish kabi yangi rag'batlantiruvchi mezon joriy etildi.

Ushbu o'zgarishlar natijasida reyting tizimi yanada mukammallashib, qonunlarga to'liq amal qilib faoliyat yuritayotgan korxonalar uchun maksimal 147 ball (100 asosiy + 47 qo'shimcha) yig'ish imkoniyati yaratildi. Amaldagi mezonlar bo'yicha 96 va undan ortiq ball to'plash eng yuqori AAA reytingini olish uchun yetarli bo'lib, bu ilgari belgilangan 65% natijaga tengdir.

Reyting tizimi joriy etilgandan boshlab qisqa muddat ichida tadbirkorlarning soliq intizomida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Soliq qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, oradan bir yil o'tib 2024-yil fevralidan 2025-yil kuzigacha tizim quyidagi aniq natijalarni berdi:

- Eng yuqori AAA reytingga ega bo'lgan 2 mingga yaqin tadbirkorga jami 4,2 trillion so'm QQS ortiqcha summasi tekshiruvlarsiz atigi 1 kunda qaytarib berildi. Bu tartib odatiy tartibdagi 7–30 kunlik muddatga nisbatan keskin tezroq bo'lib, tadbirkorlar uchun aylanma mablag'ni tez qaytarish imkonini yaratdi;

- Soliq hisobotlarini o'z vaqtida topshirayotgan tadbirkorlar soni 101,0 mingga oshdi. 2023-yilda 356,9 mingta korxona muddatida hisobot topshirgan bo'lsa, 2024–2025 yillarda bu ko'rsatkich 457,9 mingtagacha yetdi;

- Soliqlarni belgilangan muddatlarda to'layotgan korxonalar soni 101,5 mingga oshdi. Avval 81,2 mingta korxona soliqlarni vaqtida to'lagan bo'lsa, hozir bu ko'rsatkich 192,7 mingtani tashkil etmoqda.

- Elektron hisobvara-fakturalarni (EHF) belgilangan muddatlarda rasmiylashtirish holatlari sezilarli darajada yaxshilandi. Joriy davrda vaqtida rasmiylashtirilgan EHFlar soni 25,4 milliontaga ortib, 28,5 milliontaga yetdi. Bu tadbirkorlar elektron hujjat aylanishida intizom oshganini ko'rsatadi;

- Ish bilan band xodimlar soni 139,4 mingta korxonada 865,3 ming nafarga ko'paydi hamda mehnatga haq to'lash fondi 302,9 mingta korxonada 36,1 trln so'mga oshdi.

- Ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni ishga olgan korxonalar soni 12,8 mingga ko'payib, 119,2 mingtadan 132,0 mingga yetdi. Bu korxonalarda band bo'lgan nogironligi bor shaxslar, kam ta'minlangan oilalar a'zolari kabi himoyaga muhtoj qatlam vakillarining soni 191,7 mingga oshib, 605,9 mingdan 797,6 mingga yetdi.


Yuqoridagi raqamlar barqarorlik reytingi tadbirkorlarning xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatganini anglatadi. Soliq hisobotlarini o'z vaqtida topshirish va soliqlarni o'z muddatida to'lash ko'rsatkichlaridagi o'sish bevosita reyting mezonlari talablari bilan bog'liq.

Shuningdek, reyting tizimi joriy etilgach, barcha faol tadbirkorlik subyektlari ballar asosida toifalarga ajratildi. 2025-yil oxiriga kelib, jami ro'yxatdan o'tgan 557 mingdan ortiq tadbirkorning atigi 1,8% qismi yuqori reytingga (A, AA yoki AAA) ega, qariyb 16% o'rta reytingda, 44% qoniqarli reytingda va 38% quyi reytingda joylashganligi ma'lum bo'ldi. Quyidagi diagrammada tadbirkorlik subyektlarining reyting toifalari bo'yicha taqsimoti aks ettirilgan (2-rasm).

Umuman olganda, reyting mezonlari bo'yicha maksimal yig'iladigan ballar taqsimoti ham e'tiborga molik natijaviy ko'rsatkich hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, dastlabki natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, barqarorlik reytingi joriy qilinishi tadbirkorlarning o'z faoliyatiga mas'uliyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Nafaqat soliq intizomida, balki ish o'rinlari yaratish, ish haqlarni oshirish, elektron hujjat almashinuvida qatnashish kabi sohalarda ham ijobiy dinamikaning ko'rish mumkin bo'ldi.

Yuqoridagi natijalar tahlili barqarorlik reytingi tizimining bir qator kuchli tomonlari mavjudligini ko'rsatadi. Birinchi navbatda, tizim tadbirkorlarni ochiq va qonuniy faoliyat yuritishga rag'batlantirish vazifasini bajarmoqda. Soliq intizomini yaxshilagan, qonunchilik talablariga rioya qilgan korxonalar reytingi oshib, ular bir qator imtiyoz va yengilliklarga ega bo'lishmoqda. Misol uchun, AAA reytingli subyektlar odatiy tartibda bir necha hafta yoki oy oladigan QQS qaytarilishiga atigi 1 kunda erishmoqda, soliq organlari ularni umuman tekshirmayapti. Bu esa biznesga qimmatli vaqtni tejash va likvidlikni oshirish imkonini beradi.

Xuddi shuningdek, yuqori reytingli korxonalarning boshqa soliqlar bo'yicha ortiqcha to'lovlari ham atigi 3 kun ichida qaytarilmoqda.



2-rasm. Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi toifalari bo'yicha taqsimoti (2025-yil holati)

Ikkinchi muhim jihat tizimning shaffofligi va avtomatlashtirilganligi. Reyting ko'rsatkichlari turli idoralar axborot tizimlari integratsiyasi orqali avtomatik hisoblanadi. Bu inson omilini kamaytirib, subyektiv yondashuvlar va korrupsiya xavfini pasaytiradi. Tadbirkorlar o'z reytingini real vaqtda kuzatib borishlari mumkinligi ularga o'z holatini tahlil qilish va zarur choralarni ko'rishga sharoit yaratadi. Qolaversa, reyting ma'lumotlarining Savdo-sanoat palatasi sayti orqali e'lon qilinishi biznes hamjamiyatida o'zaro ishonch muhitini shakllantirishga xizmat qilyapti. Bu bozorda tartib o'rnatish va xatarli bitimlardan qochish uchun qo'shimcha vosita sifatida baholanmoqda.

Uchinchi pozitiv jihat, reyting tizimi moliya intizomi bilan iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamladi. Yuqorida keltirilgan statistik natijalar reyting balining real iqtisodiy natijalarga bevosita ta'sirini ko'rsatadi. Ilmiy tadqiqotlarda ham korxonalarning reyting darajasi bilan ularning daromadlari, soliq to'lovlari, ish haqi fondi va eksport ko'rsatkichlari o'rtasida sezilarli bog'liqlik aniqlanganligi tasdiqlangan.

Biroq, tizimni joriy etish jarayonida bir qator muammolar fikrlar ham yuzaga chiqdi. Ayrim korxonalar dastlab reytingni "yaxshilab ko'rsatish" uchun sun'iy chora ko'rishga urinishi mumkin edi. Masalan, yil yakunida vaqtincha ortiqcha ishchi yollab, ish haqlarini oshirgandek ko'rsatish, yoki muddatli qarzdorliklarni vaqtincha yopib turish kabi holatlar. Bunday hatti-harakatlarning oldini olish uchun 30 kunlik o'rtacha ko'rsatkich joriy etilgani va mezonlar yanada puxtalashtirilgani muhokamada ta'kidlandi. Shunday bo'lsa-da, kelgusida ham korxonalarning reyting uchun emas, balki real barqarorlik uchun harakat qilishini ta'minlash muhim. Bu masalada ommaviy tushuntirish ishlari va reyting mezonlarini ilmiy asosda muntazam takomillashtirib borish talab etiladi.

Shu o'rinda, tizimning yana ba'zi munozarali tomonlari sifatida uning barcha sohalarga bir xil yondashishi keltirilmoqda. Masalan, turli tarmoqlarda soliq yukining o'ziga xosligi bor. Ayrim sohalarda foyda normasi past, ayrimlarida yuqori. Bir xilda belgilangan mezonlar ba'zan nohaq manzara berishi mumkin. Mutaxassislar reytingni takomillashtirishda sohaviy va hududiy omillarni ham inobatga olish lozimligini ta'kidlashmoqda. Masalan, qurilish sohasidagi korxonaning soliq to'lov ko'rsatkichlari bilan savdo sohasidagilarini bevosita qiyoslash to'g'ri bo'lmasligi mumkin. Kelajakda reyting modeli tarmoq xususiyatlarini va mintaqaviy farqlarni ham hisobga oladigan darajada rivojlantirilishi maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, reyting ballari hali barcha manfaatdor tomonlar tomonidan to'laonli qo'llanilgani yo'q. Masalan, tijorat banklari kredit berishda yoki investorlar sherik tanlashda ushbu reytingdan foydalanishlari mumkin. Hozircha reyting asosan soliq-soha uchun yaratilgan bo'lsa-da, uni biznes hamjamiyatida kredit reytingi kabi qabul qilish jarayonini tezlatish lozim. Bu haqda ba'zi ekspertlar reytingni banklarning kompiyans tizimiga integratsiya qilish, davlat xaridlarida yuqori reytingli korxonalarga qo'shimcha ball berish kabi takliflarni ilgari surishgan. Ayni damda bunday tashabbuslar muhokama bosqichidadir.

Umuman olganda, barqarorlik reytingi tizimi qisqa fursatda o'zini oqlagan va foydali loyiha ekani ko'rinmoqda. Biroq, har qanday yangi tizim singari, uni real sharoitda qo'llash davomida chiqqan munozarali masalalarini tuzatib borish muhimdir. Buning natijasida tizim ishonchliligi oshib, tadbirkorlarga ma'qul bo'lmagan jihatlar bartaraf etildi. Kelgusida ham mazkur kuzatuv va takomillashtirish siklini davom ettirish, reyting mezonlarini iqtisodiyot rivojlanishi va davlat siyosati ustuvorliklariga mos ravishda yangilab borish zarur bo'ladi.

Xulosa va takliflar.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan boshlangan tadbirkorlarning barqarorlik reytingi tashabbusi qisqa davr ichida o'z natijasini bera boshladi. Tizim orqali tartib-intizomli korxonalar ajralib, ular rag'batlantirilmoqda, noqonuniy yoki sust faoliyat yurituvchilarda esa o'z ish uslubini qayta ko'rib chiqish ehtiyoji tug'ilmoqda. Bu esa sog'lom biznes muhiti va byudjet tushumlarini oshirishga xizmat qilmoqda. Kelajakda reyting tizimini xalqaro darajada tan olinadigan, har tomonlama puxta mexanizmga aylantirish uchun uning huquqiy va metodologik asoslarini doimiy ravishda takomillashtirib borish lozim. Yaqin yillarda ushbu tizim yurtimizda barqaror va inklyuziv iqtisodiy rivojlanishga muhim hissa qo'shishi kutilmoqda.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Abdullayev, Z. (2025). *Tadbirkorlarning barqarorlik reytingi tizimi tahlili. Innovations in Science and Technologies.*

Nurmatov, Sh. (2024). *Reyting tizimida indikatorlar va ularning vazn koeffitsientlari. TDIU ilmiy axborotnomasi, №4, pp. 18–26.*

O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi axborot xizmati (n.d.). *Rasmiy ma'lumotlar va qo'mita yangiliklari.*

Qaror (2024). *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-39-son qarori, 23-yanvar 2024-yil.*

Qaror (2024). *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to'g'risidagi Nizom"ga oid 55-son qarori, 30-yanvar 2024-yil.*

Qaror (2025). *Vazirlar Mahkamasining 662-son qarori (55-son qaror ilovasiga kiritilgan o'zgartirishlar). O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22-oktabr 2025-yil.*

Yakshiboeva, M. (2024). *Raqamli fiskal boshqaruvda barqarorlik indikatorlarining baholash metodikasi. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, №6, pp. 35–42.*